**Qo‘chqorov.S.A.**
*FarDU Harbiy ta‘lim fakulteti Uslubiy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi,*
**Xabibullayev. A.X.**
**Nabiyev. A. A.**
*FarDU Harbiy ta‘lim fakulteti talabalari.*

# CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘INCH TAYYORGARLIK FANI MASHG‘ULOTLARINI TASHKILLASHDA INOVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNI QO‘LLASH.

**Annotatsiya***: Ushbu maqolada chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan mashg‘ulotlarni tashkillashda mashg‘ulotda pedogogik texnologiya qo‘llash usullari, o‘tkazish joyi, davomiyligi, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbarining roli va pedogogik texnologiya va pedogog maxoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o‘quvchi yoshlarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini nazarda tutadi.*

**Kalit so‘zlar***: Metod, intiraktiv, dars, harbiy rahbar, o‘quvchi, predmet, texnologik- xarita, forma, vosita, usul, nazorat, baxolash, Tarmoqlar, Inter faol usullar Sinkveyn usuli, Innovatsion, aqliy hujum.*

**Аннотация***: В данной статье рассмотрены методы использования педагогических технологий в обучении при организации обучения по предмету допрофессиональной подготовки, место и продолжительность, роль руководителя допрофессиональной подготовки, а также знания и опыт педагогической технологии и педагогические навыки и интерактивные методы дают учащимся знания и зрелые навыки.*

**Ключевые слова***: Метод, интерактив, урок, военачальник, ученик, предмет, технологическая карта, форма, инструмент, метод, контроль, оценка, Сети, Интерактивные методы, Метод Синквейна, Инновационный, мозговой штурм.*

Ta‘lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi. Har qanday o‘quv yurtidagi o‘qitish jarayonini asosini o‘quv ishlari tashkil etadi. O‘qitishning sifati o‘quv jarayonini tashkillash, mashg‘ulotlar o‘tkazishning shakllariga bog‘liq buladi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan mashg‘ulotlarni tashkillashda mashg‘ulot shakli o‘quvchilar tarkibini, o‘tkazish joyi, davomiyligi, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbarining roli va boshqalarni nazarda tutadi. Mashg‘ulot shakli Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi dasturida belgilangan bo‘lib, uni o‘zgartirish mumkin emas.

***"Metod" — yunoncha "metodos" - "yo‘l"*** *degan so‘zdan olingan bo‘lib, u tadqiq qilish ma’nosini anglatadi. Ta’lim metodi ta'lim jarayonida harbiy rahbar va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida inovatsion pedagogik texnalogiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Shuningdek ta’lim muassasalarida Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani mashg‘ulotlarini tashkillashda Innovotsion texnologiyalarning o‘rni va ro‘li benihoya kattadir. Pedogogik texnologiya va pedogog maxoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o‘quvchi yoshlarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi .

**Innovatsiya (inglizcha innavation)-yangilik kiritish**, yangilikdir. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda Harbiy rahbar va o‘quvchilar faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lb, ularga quyidagilar kiradi:

-O‘quvchilarni dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;

-O‘quvchiilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

-Harbiy rahbar va o‘quvchilarni hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkilllanishi.

O‘quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga , gurug esa ularga baxo bera olsa, harbiy rahbar esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedogogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqa xolda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogk jarayondir.

O‘qituvchi va o‘quvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarni bilim saviyasi,guruh xarakteri,sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaga bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda

o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tamonini o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o‘quvchi talabani ta’limning markaziga olib chiqishi kerak. O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit xolatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta axamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi xar bir mavzu, xar bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan,o‘quvchi talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi.

Texnologik xarita mavzu maqsad va vazifalar talabalarga mavzuning mohiyati,ahamiyati,asoslari va tartibini tushuntirish. O‘quv jarayonining mazmuni O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi Metod: Forma, Vosita, Usul, Nazorat, Baxolash: Kutiladigan natijalar O‘qituvchining erishgan yutug‘i. O‘quvchining mavzu yuzasidan olgan bilimi. Kelgusi rejalar O‘qituvchi: Yangi pedogogik texnologiyalarni qo‘llay bilish maxoratini oshirish. O‘quvchi talaba: Mustaqil fikr yuritishni o‘rganish.

Harbiy rahbartomonidan o‘zi o‘qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit xolda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko‘ra olishiga yordm beradi. Ayniqsa texnologik kartani o‘quvchi talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa xolda tuzilishi uni shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedogogka va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.[35]

Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovotsion va axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqoza etadi.Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari xaqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi xaqida qo‘llama beramiz. Ushbu metodik qo‘llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchi talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ushbu metodik qo‘llanmadan foydalanuvchilar o‘quv jarayonini tashkil etish uchun xavola etilgan texnologik inovatsion medot va usullar quidagilar.

**“Tarmoqlar” metodi-** o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.

[35] https://multiurok.ru/files/innovatsion-texnologiyalar-yordamida-talim-samarad.html.

Ushbu metodik qo‘llanmadan foydalanuvchilar o‘quv jarayonini tashkil etish uchun xavola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda, o‘tkazishlari shart emas, har qaysi o‘qituvchi bu treninglarni umumiy shaklini olgan holda o‘zlarinng dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to‘liq yoki ularning bazi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

Biz quyida o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan bazi bir treninglarga tavsifnoma berib, bazilarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida metodik tavsiyanoma berib o‘tamiz.

**“ 3x4” metodi**- o‘quvchi talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh xolda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan.

Interfaol usullar

**Sinkveyn usuli**. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma’nosini bildiradi. **Sinkveyn-** ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to‘g`risidagi axborot yig`ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

**Klaster usuli**. **Klasterlarga ajratish**- o‘quvchilarga biror-bir mavzu to‘g`risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko‘p variantli fikrlashni o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so‘zi g`ujm, bog`lam ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag`batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg`otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Klasterlar tuzishdan yangi mavzuni mukammal o‘rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.

**Klaster tuzish ketma-ketligi:** Katta varog` qog`ozning o‘rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan sathga «kalit» so‘z yoki gap yoziladi; Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so‘z va gaplar yoziladi; Fikrlar paydo bo‘lganda va ularni yozganda fikrlar o‘rtasida mumkin bo‘lgan bog`lanishlarni belgilash; Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo‘lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi; Keltirilgan so‘z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi. Katta varog` qog`ozning o‘rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan sathga «kalit» so‘z yoki gap yoziladi; Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so‘z va gaplar yoziladi; Fikrlar paydo bo‘lganda va ularni yozganda fikrlar o‘rtasida mumkin bo‘lgan bog`lanishlarni belgilash; Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo‘lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi; Keltirilgan so‘z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

**Insert usuli.** Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol

bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir. O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi: V - bilganlarimni tasdiqlaydi + - yangi axborot - - bilganlarimga zid keladi ? - meni o‘ylantirib qo‘ydi [5-6].

**Aqliy hujum (Breynstorming). Aqliy hujum -** g`oyalarni generatsiya q ilish usuli . Bu metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt o‘yicha bir qancha bosqichlarga (g`oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat. «Aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish o‘kuvchilarning ijodiy va nostandart tafakkurlashini rivojlantiradi. Usulni qo‘llash uchun dastlab yig`ilgan guruh odiga muammo quyiladi. Bu muammoni yechimiga oid munozarada barcha o‘kuvchilar ishtirok etadilar va o‘z fikrlarini bildiradilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qannday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Dastlabki bosqichda hech kimni o‘zga kishi g`oyalariga «hujum» qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. «Aqliy hujum yo‘li bilan qisqa daqiqalarda o‘nlab g`oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi

Aqliy hujumning qoidalari: Fikr va g`oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim; Bildirilgan fikr va g`oyalar takliflar berish to‘xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi; Bildirilgan har qanday g`oya va fikrlar hisobga olinadi; Qancha ko‘p g`oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi; Fantastik, qo‘qqisdan miyada paydo bo‘lgan fikrlar ham muhim; Bildirilgan fikr yoki g`oyalar u yoki bu ishtirokchiniki, deb ajratilmaydi, ular muallifsizdir; Bildirilgan g`oya va fikrlarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin; Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi; Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi. Fikr yoki g`oyalarning ma’qulini tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi

**B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali** . Innovatsion usullardan biri bu B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. “B-B-B- (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) usuli mashg`ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi” [8-9].

**Venn diagrammasi** . Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko‘p doiralarda ko‘riladi, ular o‘rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g`oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko‘rsatishi kerak [8-9].

Inter faol usullar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, Harbiy rahbar va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanafi va shaklladi. Bu innavation yondashuvda o‘quvchi shaxsi ta’limda markaziy figuraga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni .

[2]. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni,

[3]. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni
[4]. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.
[5]. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
[6]. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo’ljallangan darslik.-Toshkent: TDPU – 2013. – 256 b.
[7]. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.
[8]. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
[9]. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.